

2022-yil 1-noyabr

## “Qo'ng'irotda soda zavodi” MCHJ QKda “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari ishtirokida konferensiya o`tkazildi



“Qo'ng'irotda soda zavodi” MCHJ QKda “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari ishtirokida, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish bo'yicha muammolarni ko'rib chiqish va ularni ijobiy hal etish, mahsulotlarning tannarxini tushirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni hamkorlikda sifatli olib borish hamda erishilgan yutuqlar bo'yicha tajriba almashinishni tashkil etish yuzasidan konferensiya bo`lib o`tdi.

Konferensiyada quyidagi muhim mavzular yuzasidan taqdimot va muhokamalar o`tkazildi:

- Mahsulotlarning tannarxini pasaytirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijadorligi hamda 2023-yilga ishlab chiqilgan dastur va bugungi kunda ularni amalga oshirish uchun zamin yaratish;
- Bir birlik mahsulot uchun asosiy xomashyo, materiallar va energiya resurslarining sarf me'yorlarini optimalashtirish, jumladan amaldagi sarflar miqdoriga yaqinlashtirish;
- Atrof muhit muhofazasi va ekologik tadbirlarning bajarilishi, asosiy mummoli nuqtalarni avtomatik monitoring qilish tadbirlarini jadallashtirish.

“O`zkimyosanoat” AJ tizim korxonalarida muntazam o`tkaziladigan bu kabi konferensiyalar Jamiyatda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlariga oid muhim mavzularda o`zaro fikr va tajriba almashishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sohaga oid dolzarb masalalarni hal etishda o`ziga xos muhokama maydoni vazifasini bajaradi.





"O'zkiyosanoat" AJ  
MATBUOT XIZMATI



## “O`zkimyo sanoat” AJ Matbuot xizmati

**source:**

"O'zkimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyo sanoat.uz/oz/press/news/kungiro-t-soda-zavodi-konferensiya>